

## SUDGA OID TRANSPORT IZSHUNOSLIK EKSPERTIZA SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA USTUVOR YO`NALISHLARI

*Mualliflar: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi  
X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining  
Farg'ona viloyat bo'limi davlat sud eksperti*

**Yuldashev Laziz Olimovich**

*2-darajali yurist.*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi  
X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining  
Farg'ona viloyat bo'limi davlat sud eksperti*

**Hatamov Behzod Alisher o'g'li**

*3-darajali yurist.*

*Xizmat manzili: O'zbekiston Respublikasi, 150103,  
Farg'ona shahri, B. Marg'iloniy ko'chasi 121-uy.*

**Annotatsiya:** Sudga oid avtotexnika va sudga oid transport izshunoslik ekspertizalari sohasini rivojlantirish, ekspertlar makalasini oshirish, fuqarolarga soha bo'yicha aniq, ishonchli va shaffof ma'lumot berish, sudga oid avtotexnika va transport izshunoslik ekspertizasining mazmuni, ekspertiza o'tkazilishi tartibi haqida xabardor qilish, jismoniy va yuridik shaxslarni murojaatiga asosan avtotexnika transport izshunoslik va avtotexnika baholash ekspertizasi tadqiqotlari yuzasidan, mutaxasis fikri olish imkoniyatlari va qulayliklari.

**Kalit so'zlar:** Sudga oid avtotexnik ekspertiza, transport izshunoslik ekspertizasi, mutaxasis fikri, ashyoviy dalilar, ekspert fikri.

**Annotatsiya:** Razvivat sferu sudebnoy transportnoy ekspertizy, povышат квалификацию экспертов, предоставят гражданам четкую, достоверную и прозрачную информацию в данной сфере, информируют о содерянине и порядке судебной экспертизы.

**Klyuchevye slova:** Sudebno-transportnaya ekspertiza, avtotexnicheskaya ekspertiza, ekspertnoe zaklyuchenie, identifikatsiya, vosproizvodimost, sopostavimost.

**Abstract:** To develop the field of judicial transport expert examination, to increase the expertise of experts, to provide citizens with clear, reliable and transparent information on the field, to inform about the content and procedure of transport expert examination.

**Key words:** Forensic transport expertise, auto technical expertise, expert opinion, identification, reproducibility, comparability.

**Kirish:** Ushbu tezisda Sudga oid avtotexnika va transport izshunoslik ekspertizasiga oid barcha ma'lumotlar, Sudga oid avtotexnika va transport izshunoslik ekspertizasining nazariy asoslari, ob'yektlari, ularning barcha turlari haqidagi bilimlar to'lig'icha mujassamlantirilgan bo'lib, bunday ma'lumotlarni o'zlashtirish orqali ushbu

soha bo'yicha to'liq va aniq tushunchalar beriladi, shuningdek, hozirgi zamonning talabiga javob beradigan ekspert amaliyoti uchun zarur bo'lgan axborotlar berilgan.

Asosiy qism: Respublikamiz o'z avtomobil sanoatiga ega bo'lgan davlatlar qatoriga kirgandan so'ng, mamlakatimizdagi avtomobil yo'llarida harakat intensivligi tobora oshib bormoqda. Shu bilan bir qatorda yo'l-transport xodisalarining soni ham ortib bormoqda. Bunday sharoitda sudga oid avtotexnika, transport trasologiya va avtombillarning texnik holatini aniqlash bo'yicha o'tkaziladigan tadqiqotlar yo'l-transport xodisalari bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Sud-avtotexnika ekspertizasida transport-trasologiya, yo'l-transport hodisalarini matematik uslublar bilan tadqiqot qilish, transport vositalarining texnik holati tadqiq etish kabi ekspertizalarni o'tkazadi.

Xar bir tur ekspertizalar o'ziga xos predmeti, ob'ektlari, tadqiqod usullari va ekspertizaga taqdim qilinishi zarur bo'lgan materiallar to'plami bilan ajralib turadi.

YTHni ekspertiza qilish deb- hodisaning barcha jihatlarini ilm-fan, texnika va soha bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lgan shaxslar tomonidan majmuaviy ilmiy-texnik tadqiq qilishga aytildi.

YTH to'g'risidagi ishlar bo'yicha ekspertning harakatlari ayblanuvchining harakatlariga huquqiy baho berish, ularga bog'liq bo'ladigan bir qator holatlarni aniqlashga qaratiladi.

YTHning asosiy elementlari bo'lib hisoblanadigan holatlarga quyidagilar kiradi:

YTHning mexanizmi;

xavfli va avariyalı vaziyatlar;

xavfning vujudga kelish vaziyati;

haydovchining reaksiyasi;

hodisa joyi;

haydovchining harakatlari va avariya oqibatlari o'rtasidagi sabab bog'lanishlari;

hodisaning oldini olishning texnik va psixofiziologik imkoniyati (imkoniyatsizligi);

haydonchining YTH momentidagi psixologik holati;

transport vositasining texnik holati va hodisa joyida yo'lning obodonchiligi;

bir qator boshqa hosil bo'ladigan omillar.

✉ Sudga oid avtotexnika ekspertiza predmeti. Sud avtotexnika ekspertizasi bilan transport vositasining haqiqiy aniq texnik holati, voqeа joyining yo'l holati, voqeа joyidagi qatnashchilarning harakatlari va ularning imkoniyatlari, YTH mexanizmlari va vaziyatlari, jinoyat sodir qilish imkoniyatlari avtotexnik ekspertning maxsus bilimlariga va jinoyat (fuqarolik) ish hujjatlari yoki ma'muriy ish hujjatlariga asoslanib aniqlanadi.

Sud avtotexnika ekspertizasi o'z o'rnidagi bir necha turga bo'linadi. Har bir turi o'ziga xos ob'ektlari, tadqiqot usullari va ekspertizaga taqdim qilinishi zarur bo'lgan materiallar to'plami bilan ajralib turadi. Yuqoridagilarni hisobga olib sud avtotexnika ekspertizasi quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1.Yo'l-transport hodisasi mexanizmlari ekspertizasi.
- 2.Transport vositasining texnikaviy holati ekspertizasi.
- 3.Transport vositasi va yo'l transport hodisasi joyidagi izlar (transport-trasologiya) ekspertizasi.
- 4.Transport baxolash ekspertizasi.
5. Yo'l ekspertizasi

Xozirgi kunda 2021 yilda laboratoriya uchun sotib olingan dasturlardan foydalanib quyidagi qo'shimcha tadqiqotlarni bajarish yo'lga qo'yildi:

- "DTP Expert" dasturi bo'yicha avtomobilarning harakat tezligi aniqlash;

- "PC crash" dasturidan foydalanib transport vositalarining to'qnashuv joylari va ularning yo'nalishlarini aniqlash;

- transport baholash tadqiqotlar bo'yicha "AvtoEkspertiza" dasturidan foydalanilgan holda chet davlatda ishlab chiqarilgan avtomobilarga yetkazilgan moddiy zarar miqdorini aniqlash;

### ☒ Tekshiruv usullari.

YTH mexanizmlarini tadqiqot qilish, transport vositalarda mavjud izlarning o'lchamlarini o'lchash va suratga olish, transport vositalarning tezliklarini, to'xtatib qolish masofalarini, harakatlanish bilan xavf tug'ilganda qancha metr masofa uzoqlikda bo'lganligi, xavfsiz tezliklari, ko'rinish bo'yicha tezliklari, oraliq masofalari, to'siq yoki xavf bo'lganligi, o'lchov asboblarida yo'lga nisbatan, avtomobilarga nisbatan burchaklari, texnik holati bo'yicha transport vositalarning yaroqsiz holatini kelib chiqish sabablari va h/k.

Ekspertning maxsus bilimlari yordamida (hisoblar, tajriba o'tkazish yoki modellashtirish).

### ☒ Ekspertiza ob'ektlari.

Barcha turdagи sud avtotexnika ekspertizalari uchun quyidagilar tadqiq qilinadigan ob'ektlar jumlasiga kiradi:

- yo'l-transport hodisasi ishtirokchisi bo'lgan avtotransport, elektrotransport, traktor va boshqa o'zi yurar mexanizmlar (moslamalar);

- yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan yo'l, dala, hovli, shuningdek transport vositasi harakatlanadigan boshqa joylar;

- yo'l-transport hodisasi bilan bog'liq bo'lgan ashyoviy dalillar va ish hujjatlari (materiallar).

### ☒ Qo'shimcha ravishda taqdim etilishi lozim bo'lgan materiallar.

Ekspert ixtiyoriga ob'ektlardan tashqari voqeа joyini ko'zdan kechirish bayonnomasi va fotojadvalini yuborish lozim.

Qayta, qo'shimcha yoki komission ekspertizalar o'tkazilishi talab etilganda, birlamchi o'tkazilgan ekspertiza xulosalari nusxalari taqdim etilishi zarur.

### ☒ Ekspertizaga taqdim qilinadigan ma'lumotlar.

- yo'lning qatnov va yoqa qismlari qoplami (ASFALT, beton va h.k.);  
- qatnov qismining holati (quruq, ho'l, loy, qor, muz va h.k.);

- qatnov qismi va yoqasining kengligi;
- yo'lning shu joyida harakat qanday tashkil etilganligi (bir qator, ikki qator, bir tomonga va h.k.);
  - yo'l belgilari mavjudligi va ularning joylashishi;
  - yo'lning old va yon tomonlaridagi ko'rinish masofalari;
  - transport vositasining texnik holati (rul boshqaruvi, tormoz tizimi, yoritish tizimi va h.k.);
- transport vositasining yuklanish darajasi (yengil avtomobil, motosikllar uchun yo'lovchilar soni);
  - tormoz izlari yoki transport vositasining harakatlanishini bildiruvchi izlar yo'q bo'lganda, uning harakat tezligi.
    - transport vositasining harakatlanishini bildiruvchi izlar bo'lganda, ularning uzunligi va transport vositasining qaysi qismlaridan qoldirilganligi (masalan, tormoz izlari oldi, orqa yoki hamma g'ildiraklaridan qolgan, ishqalanish izlari yon tomoni bilan sirpanish vaqtida qolgan izlar);
    - hodisa sodir bo'lgan nuqtaning yo'lning qatnov qismi chetlariga nisbatan joylashgan masofalari.

Transport vositasi piyodani ochiq, ya'ni piyodani ko'rishga halaqit beruvchi to'siq bo'lmanan joyda urib yuborgan bo'lsa, ekspert ixtiyoriga quyidagi ma'lumotlar taqdim etiladi:

- haydovchining harakati uchun xavf tug'ilgan vaqt;
- harakat uchun xavf tug'ilgandan so'ng voqeа joyigacha qancha masofani qanday tezlik bilan yoki qancha vaqt ichida bosib o'tganligi;
- piyodaning voqeа joyiga qarab harakatlanishidan oldingi harakatlarining tafsiloti;
- transport vositasining voqeadan keyin to'xtaguncha bosib o'tgan masofasi (tormoz izi mavjud bo'lsa, uning voqeа joyidan keyingi uzunligi);
- transport vositasining qaysi qismi bilan piyodani urganligi, agar oldi qismidan boshqa joyi bilan urgan bo'lsa, oldi qismidan o'sha joygacha bo'lgan masofa;
- transport vositasi yo'lning qatnov qismi chetlaridan qancha masofada harakatlanganligi;
- agar harakatdagi piyoda harakat tezligini yoki yo'nalishini o'zgartirgan bo'lsa yoki to'xtasa, har bir tezlik bilan bosib o'tilgan masofalar haqidagi ma'lumotlar bo'lmasa har bir tezlikda harakatlangan va to'xtash vaqlari.

Piyodaning bosib o'tgan masofasi, tezligi yoki harakat vaqtini aniq bilish maqsadida voqeа sodir bo'lgan joyda ko'rsatmalarni tekshirish, tergov eksperimentlari o'tkazish tavsiya etiladi.

Bu masalada piyodalarning harakat tezliklari haqidagi jadvallar haqiqiy ma'lumotlarni bermasligi mumkin.

Agar piyoda to'siq orqasidan chiqqan bo'lsa, yuqorida aytib o'tilgan ma'lumotlardan tashqari qo'shimcha, quyidagilar kerak bo'ladi:

- to'siqning qatnov qismiga nisbatan joylashish, ya'ni qatnov qismidan necha metr chekkada uning qanchasini egallab turganligi;
- to'siqning o'lchamlari (balandligi, uzunligi);
- to'siqdan piyodaning harakat yo'ligacha bo'lgan masofa;
- to'siq bilan transport vositasi o'rtasidagi yon oraliq masofa.

Piyoda qarama-qarshi harakatlanayotgan transport vositasi orqasidan chiqsa, yana quyidagi ma'lumotlar ham zarur bo'ladi:

- qarama-qarshi harakatlanayotgan transport vositasining harakat tezligi;
- qarama-qarshi harakatlanayotgan transport vositasi yo'l qatnov qismini chetlariga nisbatan qanday masofada harakatlanganligi;
- qarama-qarshi harakatlanayotgan transport vositasining orqa qismidan harakatdagi piyodagacha bo'lgan masofa.

### ✉ Ekspertizaga hal qilish uchun qo'yiladigan savollar:

Transport vositasining texnik holatini aniqlash ekspertizasini o'tkazishda quyidagilarni aniqlash uchun savollar tuziladi:

Transport vositasini tadqiq etishni birinchi navbatda uning holatiga eng kam o'zgarish kirituvchi ekspertizani o'tkazishdan boshlash kerak.

- transport vositasi va uning alohida qismlarini (tormoz tizimi, rul boshqaruvi va h.k.) texnik holatini aniqlash (soz yoki nosoz);
- transport vositasining texnikaviy nosozliklarini hosil bo'lish sabablarini aniqlash;
- transport vositasining texnikaviy nosozliklari yo'l-transport hodisasiga nisbatan qachon paydo bo'lganini belgilash;
- transport vositasidasidagi nosozlik yo'lga chiqishdan oldin mavjud bo'lganligini aniqlash;
- aniqlangan nosozlik transport vositasining umumiyligi holatiga qanday ta'sir etishini tadqiq qilish;
- aniqlangan nosozlik hamda kelib chiqqan xo'disa o'rtasida sababiy bog'lanish borligini aniqlash;
- transport vositasining taqdim etilayotgan tizimining ishlash ko'rsatkichlarini aniqlash;

Ushbu ekspertizani o'tkazish uchun ekspert ixtiyoriga tekshirilayotgan transport vositasi yoki uning qismi, transport vositasining texnik holati to'g'risidagi ma'lumotlar (texnik ko'rikdan o'tkazilgan dalolatnomasi, transport vositasini ta'mirlash haqidagi ma'lumot va h.k.), yo'l transport hodisasidan keyin tuzilgan transport vositasining texnik holati to'g'risidagi bayonnomasi taqdim qilinadi.

✉ Transport izshunoslik ekspertizasi o'tkazishda quyidagilarni aniqlash uchun savollar tuziladi:

Transport vositalaridagi shikastlarning hosil bo'lishi mexanizmi, transport vositalarining hodisa paytidagi bir-biriga nisbatan holatlari, to'qnashuv yo'lning qatnov qismining qaerida yoki qaysi tomonida sodir bo'lganligi, to'qnashuv vaqtida

transport vositalarining statik yoki dinamik (turgan yoki harakatda bo'lgan) holatini aniqlash kriminalistika va avtotexnika sohasidagi bilimlar asosida amalga oshiriladi.

Ushbu ekspertiza quyidagi savollarni hal etadi:

- transport vositalaridagi shikastlarning hosil bo'lish mexanizmini aniqlash;
- to'qnashuv vaqtida transport vositalari bir-biriga nisbatan qanday holatda bo'lganini aniqlash;
- to'qnashuv vaqtida transport vositalarining bo'ylama o'qlari o'zaro (bir-biriga nisbatan) qanday burchak ostida bo'lganini aniqlash;
- transport vositalari dastlab va keyinchalik qaysi qismlari bilan to'qnashganini belgilash;
- voqeа joyidagi izlarga ko'ra hodisa qanday tarzda boshlanganini aniqlash;
- to'qnashuv joyi yo'l qatnov qismining qayerida bo'lganini aniqlash;
- to'qnashuv yo'l qatnov qismining qaysi tomonida sodir bo'lganini aniqlash;
- to'qnashuv vaqtida transport vositalari yo'l o'qiga nisbatan qanday burchak ostida bo'lganini aniqlash;
- to'qnashuvgacha, to'qnashuv vaqtida va undan keyin transport vositalarining harakat yo'nalishlari qanday bo'lganini aniqlash;
- to'qnashuv vaqtida transport vositalari harakatda bo'lgani yoki ularning bittasi to'xtab turgan bo'lganini aniqlash.

Transport trasologiya ekspertizasi oldiga qo'yilgan savollarning turiga qarab ekspertga taqdim qilinadigan ob'ekt va ma'lumotlar belgilanadi. Masalan:

- transport vositalaridagi shikastlarning hosil bo'lishini, ularning bir-biriga nisbatan holatlarini, harakatda bo'lgan yoki bo'lмагanligini aniqlash masalasi transport vositalaridagi izlar va shikastlarni tadqiq qilish hamda ish hujjatlari(material) bilan tanishib chiqish yo'li bilan hal etiladi.

- to'qnashuv joyini aniqlash uchun ish hujjatlari(material)dagi voqeа joyini ko'zdan kechirish bayonnomasi, chizmalar, fotosuratlar va boshqa hujjatlardan foylalanildi.

☒ Yo'l-transport hodisasining mexanizmlari ekspertizasini o'tkazishda quyidagilarni aniqlash uchun savollar tuziladi:

- transport vositalarining harakat tezliklarini aniqlash (tormoz izlari va video tasvirlar orqali);
- transport vositasini to'xtatish va to'xtash masofalarini aniqlash;
- yo'l-transport hodisasining turli vaqtarda transport vositalarining o'zaro yaqinlashib kelish holatlarini aniqlash;
- transport vositasining ma'lum masofani bosib o'tish uchun sarflaydigan vaqtini aniqlash;
- ekspertning maxsus bilimlari yordamida (hisoblar, tajriba o'tkazish yoki modellashtirish), yo'l-transport hodisasi (to'qnashuv, o'rib ketish, ag'darilish va h.k.)ni oldini olish uchun xavf tug'ilgan vaqtni aniqlash;

- haydovchining yo'l-transport hodisasini bartaraf etish uchun oxirgi imkoniyati qolgan vaqtida transport vositasi bilan hodisaning ikkinchi ishtirokchisini o'zaro (masofa bilan ifodalanuvchi) holatlari qanday bo'lganligini aniqlash.

Yo'l-transport hodisasi ishtirokchilarining harakatini quyidagi maqsadlarda tadqiq qilish:

- mazkur vaziyatda harakat havfsizligining texnik talablariga va transportdan foydalanish qoidalariga muvofiq hodisa ishtirokchilari qanday harakat qilishlari lozimligini;

- haydovchi havfsizlikni ta'minlash uchun ushbu vaziyatda qanday harakat qilishi lozimligini;

- harakat uchun xavf tug'ilganda haydovchining qanday harakatlari yo'l-transport xodisasini bartaraf etishga olib kelishini va bu harakatlar yo'l harakati qoidalarining qaysi bandlarida nazarda tutilganligini;

- haydovchining yo'l harakati qoidalarining tegishli talablarini bajarish uchun texnikaviy imkoniyati bor-yo'qligini;

- haydovchining hodisani o'rganayotgan organ tomonidan aniqlab berilgan, xavfli vaziyat paydo bo'lgan vaqtida transport vositasi tezligini kamaytirish yo'li bilan yo'l-transport hodisasi oldini olish uchun texnik imkoniyati bor-yo'qligini;

- haydovchining transport vositasini boshqarish bo'yicha harakatlari bilan texnikaviy dastlabki ma'lumotlar asosida hamda ob'yektiv qonuniyatlarni hisobga olgan holda kelib chiqqan oqibatlarning texnik tomoni o'rtasidagi sababiy bog'lanish bor-yo'qligini.

☒ Transport baxolash ekspertizasini o'tkazishda quyidagi savollar hal etiladi:

- transport vositasining bugungi kundagi bozor bahosini aniqlash;

- transport vositasiga yetkazilgan moddiy zarar qiymatini aniqlash;

- transport vositalarini tiklanishiga ketadigan sarf-xarajatlar qiymatini aniqlash.

- transport vositalarining agregat va detallarining o'rtacha bozor bahosini aniqlash;

☒ Ashyoviy dalillar va qiyosiy tekshiruv materiallarini yig'ish, olish, o'rash, saqlash talablari.

Sudga oid avtotexnika ekspertizasini o'tkazish uchun voqeа joyidan olingan ashayoviy dalillar qanday holda topilgan bo'lsa, o'sha holda ekspertizaga yuboriladi, bundan tashqari transport vositalari va boshqa ishga aloqador ma'lumotlar taqdim qilinadi.

Tadqiq qilish uchun yuborilayotgan ob'ekt haqida qaerdan, qachon va qaysi ish bo'yicha olinganligi to'g'risida ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Tegishli ma'lumotlar surishtiruvchi, tergovni olib borgan shaxs, prokuror yoki sudyaning imzosi bilan tasdiqlangan va muhrlangan bo'lishi kerak. Ashyoviy dalillarning buzilishi yoki ularga zarar yetkazilishining oldini olish hamda ashayoviy dalillarni tadqiq qilishda qiyinchilik tug'dirmaslik maqsadida bevosita ekspertiza ob'ektlari ustiga hech qanday yozuvlar yozish yoki izohlar kiritilgan qog'ozlarni yopishtirish mumkin emas.

Ekspert fikri

Ekspert xulosasi, qoida tariqasida, uch qismdan iborat: kirish, tadqiqot va xulosa.

Xulosaning asosiy qismi quyidagilarni ko'rsatadi: ekspertiza muassasasi: ekspertiza o'tkazilayotgan jinoyat ishi; ekspertiza tayinlagan organ; materiallarni topshirish va xulosa berish sanalari; savollar; olingan materiallar ro'yxati va qadoqlash holati; ekspert to'g'risidagi ma'lumotlar (lavozimi, mutaxassisligi, ilmiy darajasi, unvoni, ekspert tajribasi); tekshiruv vaqtida hozir bo'lgan ma'lumotlar. Ba'zi hollarda kirish qismida ishning qisqacha mazmuni, shuningdek, ekspert tomonidan yuborilgan so'rovlар va ularga olingan javoblar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud.

Takroriy imtihonlar xulosalarida, bundan tashqari, birlamchi ekspertiza xulosalari sanab o'tiladi, kompleks ekspertiza xulosalarida esa savollar turli mutaxassislik mutaxassislari o'rtasida qanday taqsimlanganligi ko'rsatiladi. Strukturaviy va tadqiqot qismi batafsil ekspertizadan boshlab imtihonning bosqichlarini ketma-ket aks ettiradi. Mutaxassis, qoida tariqasida, bitta texnika bilan chegaralanib qolmaydi va umumiyl xususiyatlardan tortib, alohida ma'lumotlarga qadar ma'lumotlar to'plamini yaratishga intiladi. Xulosada qo'llaniladigan usullar ko'rsatilgan va unchalik ma'lum bo'limganlari manbaga asoslanib etarli darajada batafsil bayon etilgan, shuningdek ishlataladigan asbob-uskunalar, o'rganilishi kerak bo'lgan ish materiallari sanab o'tilgan.

Ekspert xulosasini dalil sifatida baholash tergovchi (sud) tomonidan umumiy asosda amalgalash oshiriladi.

Xulosa bilan tanishish jarayonida quyidagi savollarga aniqlik kiritiladi: taqdim etilgan materiallar yetarlimi, ekspert so'rovlari qanoatlantirilganmi, taqdim etilgan materiallar to'liq va xolisona o'rganilganmi, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yetarli darajada samaralimi?, barcha savollarga javob berilganmi va ular belgilangan natijalarga mos keladimi. Keyinchalik, tergovchi (sud) ekspert xulosalarini ish bo'yicha to'plangan boshqa dalillar bilan taqqoslaydi, har bir aniqlangan faktning dalillar tizimidagi o'rni va mazmunini aniqlaydi va xulosani bir butun sifatida baholaydi. Olingan xulosaga tushuntirishlar yoki qo'shimchalar olish uchun tergovchi ekspertni so'roq qilishi mumkin.

Ekspertning xulosasi va so'roq bayonnomasi ayblanuvchiga tanishish uchun taqdim etilishi kerak, u o'z tushuntirishlarini berishi va e'tiroz bildirishi mumkin. E'tirozlar muhim deb topilgan taqdirda, qo'shimcha yoki takroriy ekspertiza tayinlash to'g'risidagi masala ko'rib chiqiladi.

Ekspertiza tarkibiga ko'ra, individual (bitta ekspert), komissiya (bir sohada ikki yoki undan ortiq mutaxassis) mavjud. Amalda, komissiya imtihonlari odatda takroriy tadqiqotlar o'tkazishda uchraydi (mutaxassislarning har biri tadqiqotni to'liq hajmda olib boradi, shundan so'ng ular birgalikda xulosa tuzadilar. Kompleks sud ekspertizasi ishlab chiqarishda turli ixtisoslikdagi ekspertlar tomonidan ularning har biri o'z maxsus bilimlari doirasida tadqiqot olib boradi. Ekspert xulosasida har bir ekspert qanday tadqiqot va qay darajada o'tkazganligi, qanday faktlarni aniqlaganligi va qanday xulosaga kelganligi ko'rsatiladi. Kompleks ekspertiza o'tkazishda ishtirok etuvchi har bir ekspert xulosaning o'zi olib borgan tadqiqot tavsifini o'z ichiga olgan

qismiga imzo chekadi va buning uchun javobgar bo'ladi. Umumiy xulosa olingan natijalarni baholash va ushbu xulosani shakllantirish vakolatiga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Agar umumiy xulosa uchun asos bir yoki bir nechta ekspert tomonidan aniqlangan faktlar bo'lsa, bu xulosada ko'rsatilishi kerak. Kompleks yoki komissiya ekspertizasini o'tkazuvchi ekspertlar yagona xulosani tuzadilar. Mutaxassislar o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelgan taqdirda, ularning har biri yoki boshqalar bilan rozi bo'limgan ekspert alohida xulosa beradi. Ekspertiza tayinlashda ob'ektlarni qiyosiy o'rganish uchun zarur bo'lgan namunalarni to'g'ri tanlash hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ekspertiza uchun yuborilgan barcha namunalar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

• takrorlanuvchanlik (ulardagi identifikasiya belgilaring to'liq va aniq ko'rsatilishi);

• qiyosiylik (umumiy va qisman xarakteristikalar asosida taqqoslash uchun namunalardan foydalanish imkoniyati);

• o'zgarmaslik (identifikasiya davrida ko'rsatilgan xususiyatlarning barqarorligi);  
• kelib chiqishining haqiqiyligi.

Xulosa berishda ekspert chiqadigan xulosalar kategorik va ehtimoliy (ijobiyl va salbiy) bo'lishi mumkin. Ekspertning qat'iy xulosasi dalil manbai, xulosada ko'rsatilgan faktik ma'lumotlar esa ish bo'yicha dalil hisoblanadi. Ehtimoliy xulosa dalil manbai emas; u faqat tergovning keyingi yo'nalishini belgilaydi. Ehtimoliy xulosa operativ-taktik rol o'ynaydi va tabiiyki, hukmning asosi sifatida foydalanish mumkin emas.

Xulosa qilib aytganda, sud ekspertiza sohasini rivojlantirishning zamonaviy usullari va ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, sohani taraqqiy ettirish, shu orqali jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash,adolat ustuvorligiga erishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasining «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi qonuni;

2.YTH mexanizmini matematik uslublar bilan tadqiqot qilish ekspertizasi bo'yicha metodik qo'llanma. Toshkent-2018;

3.Sudebnaya avtotexnicheskaya ekspertiza, ch.2 pod red. V.A.Ilarionova, VNIISE, M., 1980.

4.Ispolzovanie v ekspertnoy praktike eksperimentalno-raschetnyx znacheniy parametrov tormojeniya avtotransportnyx sredstv. RFSE, M., 1995;

5.Sudebnaya avtotexnicheskaya ekspertiza, ch.2 pod red. V.A.Ilarionova, VNIISE, M., 1980.

6.Ispolzovanie v ekspertnoy praktike eksperimentalno-raschetnyx znacheniy parametrov tormojeniya avtotransportnyx sredstv. RFSE, M., 1995;

7.“Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risida”gi Namunaviy nizom (21.02.2023 yil, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 73-sonli Qarori);

8.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazida sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risida NIZOM. 10.04.2023, №72;

9.Issledovanie texnicheskogo sostoyaniya transportnyx sredstv agregatov i yego detaley T. RSSE, 2018.

10.Ekspertnoe issledovanie texnicheskogo sostoyaniya transportnyx sredstv. M. VNIISE 1984.